

TURKIYANING SOMALIDAGI YUMSHOQ KUCH SIYOSATI

Fayziyeva Sarvinoz Alisherovna

TDShU, Tarix mutaxassisligi, I kurs magistranti

E-mail: Noza7157@gmail.com

Annotatsiya: Turkiya jumhuriyati boshqa rivojlangan davlatlar qatorida o‘zining yumshoq kuch siyosatini xalqaro darajada olib boradi. Turkiya yumshoq kuch siyosati ta’lim, madaniyat, san’at va boshqa sohalarni o‘z ichiga oladi. Turkiyaning yumshoq kuch siyosati Afrika davlatlarini ham chetlab o‘tmagan. Xususan, Somali misolida buning yorqin dalilini ko‘rishimiz mumkin. Turkiya Somaliga iqtisodiy, siyosiy, ta’lim, harbiy sohalarda bugungi kunga qadar ko‘maklashib kelmoqda. Bu ko‘maklar Somalining rivojlanishiga sezilarli darajada o‘z hissasini qo‘shmoqda.

Kalit so‘zlar: Turkiya, yumshoq kuch, Somali, Mogadishu, BMT, IHT, Xargeysa

Abstract: The Republic of Turkey, along with other developed countries, conducts its soft power policy at the international level. Turkey’s soft power policy includes education, culture, art and other areas. In particular, we can see clear evidence of this in the case of Somalia. Turkey has been helping Somalia in the economic, political, educational and military fields until today. These aids significantly contribute to the development of Somalia.

Key words: Turkey, soft power, Somalia, Mogadishu, UN, OIC, Hargeisa

Jozef Nay ta’kidlaganidek, xalqaro munosabatlarda siyosatga bo‘lgan munosabat o‘zgargan. Mamlakatlarning tashqi siyosatida ishontirish, obro‘sini oshirish hamda uzoq muddatli munosabatlarni boshqarish ular istagan natijalarga erishishning yangi usuli sifatida paydo bo‘ldi.⁶⁶ Endilikda harbiy va iqtisodiy sanksiyalar o‘mini ta’lim,

⁶⁶ Internet: Nye, J. Jr. (2005). "Soft Power and Higher Education", Web: <https://library.educause.edu/~media/files/library/2005/1/ffp0502s-pdf.pdf> adresinden 18.08.2017

madaniyat, san'at va boshqa sohalar egallay boshladi. Turkiya iqtisodiyot, xorij mamlakatlar bilan chuqur savdo aloqalarini o'rnatish va u yerda elchixonalar sonini ko'paytirish orqali keng aloqalar tarmog'ini yaratdi. Bunday siyosatning eng yorqin misoli sifatida Turkiya bilan tarixiy, iqtisodiy, madaniy, siyosiy va diniy aloqalarga ega Somalini keltirishimiz mumkin. 2011-yildan keyin Turkiyaning Afrikadagi eng ko'p e'tibor qaratgan hududlari Sudan, Efiopiya, Nigeriya, Gana va Somali ham bundan mustasno emas. 2005-yilda e'lon qilingan Afrika yilidan keyin aloqalari kun sayin rivojlanib borayotgan Turkiyaning Afrika davlatlariga ta'siri oshib bordi. Davlat rahbarlarining tez-tez tashriflari siyosiy ahamiyat bilan birga xususiy sektorlar o'rtasidagi aloqalarni ham oshirib bormoqda.⁶⁷

Somalidek zaif davlatga Turkiyaning yordami juda zarur edi. Turkiyaning yumshoq kuchi davlat institutlari va fuqarolik jamiyati faoliyati orqali Somalini o'z-o'zini ta'minlaydigan davlatga aylantirish uchun ishlamoqda. Turkiyaning Somaliga nisbatan siyosatining asosiy yo'nalishi xayrixohlik va gumanitar diplomatiyadir. Mamalakatga iqtisodiy jihatdan yordam berish, xodimlar salohiyatini oshirish, Somali talabalariga stipendiyalar va turk-somali tijorat munosabatlarini yaxshilash kabi masalalarga e'tibor qaratdi. Turkiyaning Somaliga nisbatan olib borgan siyosati birinchi navbatda ocharchilikni bartaraf etishga qaratildi. Turkiya oziq-ovqat, kiyim-kechak, dori-darmon kabi eng kerakli materiallarni tez va intensiv ravishda yetkazib berdi.

Turkiyaning Somalidagi birinchi diplomatik vakolatxonasi 1979-yilda ochilgan bo'lsada, 1991-yilda fuqarolar urushi boshlanishi bilan yopilgan. Diplomatik aloqalar 2011-yil noyabr oyida Tayyib Erdoganning tashrifidan keyin tiklangan.⁶⁸ Turkiyaning chet eldag'i diplomatik vakolatxonasining eng katta majmuasi 2016-yil Mogadishuda ochilgan. 2014-yilda Turkiya Xargeysa shahrida konsullik tashkil etadi. Siyosiy va iqtisodiy muammolarni hal etish hamda mamlakatni qayta tiklash masalalarini ko'rib

⁶⁷ Internet: "Türkiye Somali'de Ne Yapıyor?", Web: <http://www.dw.com/tr/t%C3%BCrkiye-somalide-ne-yap%C4%B1yor/a40576613> adresinden 27.06.2018 tarihinde alınmıştır

⁶⁸ Hamid, S.H. (2017). 2005 ve Sonrası Türkiye-Afrika İlişkileri-Vaka İncelemesi: Somali Örneği, Yüksek Lisans Tezi, İstanbul Medeniyet Üniversitesi Sosyal Bilimler Enstitüsü, İstanbul

chiqish maqsadida 2010- 2012-yillarda Istanbulda konferensiyalar o'tkazildi. Bundan tashqari 2016-yil Anqarada Somali va Somaliland o'rtasida ikki tomonni birlashtirish maqsadida bo'lib o'tgan konferensiyada Turkiya mezbonlik qildi. Ikki davlat o'rtasida muntazam ravishda oliy darajadagi muhokamalar, delegatsiyalar almashinushi va xalqaro forumlar, jumladan BMT doirasidagi hamkorlik yo'lga qo'yilgan. Bir paytlar somaliliklar faqat Xitoy va Yaqin Sharq davlatlari bilan savdo aloqalarini olib borgan bo'lsa, bugungi kunda ham sifat ham dizayn borasida turk mahsulotlarini olishga e'tibor qaratmoqda.⁶⁹ Somalidagi ko'plab do'konlar turk mahsulotlari bilan to'ldirilgan va do'konlarini ham turk shaharlari nomlari bilan atashadi. Somali tadbirkorlari Turkiyaning to'qimachilik, oziq-ovqat, kiyim-kechak va boshqa mahsulotlar ishlab chiqarish bozorlariga ega. Bu har ikki tomon uchun ham mukammal biznesni rivojlantirish vositasi hisoblanadi. Bundan tashqari ko'plab somaliliklar yashash, ishlash va biznes ochish uchun Turkiyaga ko'chib o'tishdi. Aksariyati savdo markazi bo'lgan Istanbulda to'plangan bo'lsa-da, boshqalari Anqara va boshqa kichik shaharlarga joylashishgan. Somaliliklar soni ortib ishlab, hozir Turkiyada ko'chmas mulk sotib olmoqda va u yerda ham biznesga sarmoya kiritilmoqda. Bugungi kunda Istanbulda beshta Somali restorani mavjud va bu tabiiy investitsiya, balki an'anaviy ko'chmanchi bo'lgan Somali xalqidan joylashish va integratsiya qilish niyatining belgisidir. Hattoki ko'chib o'tmaganlar uchun ham u yer mashhur sayyoqlik, salomatlik va farovonlik joyi bo'lib qolmoqda, bu esa turk bizneslari uchun yanada ko'proq madaniy turmush va savdoni anglatadi.⁷⁰

Turkiyaning Somali bilan umumiyligi aylanmasi 2002-yilda 500 ming dollarni tashkil etgan bo'lsa, 2021-yilda 365 ming dollarga yetdi.⁷¹ Shuningdek Turkiyaning Somalidagi sarmoyasi taxminan 100 million dollarni tashkil etadi. Bundan tashqari Turkiya Mogadishu xalqaro aeraporti va Mogadishu dengiz portiga ta'sir etadi. Turkiya Somali bilan xavfsizlik borasida bir necha kelishuvlarni amalga oshirgan.

⁶⁹ Bayram, Mürsel. "Türk Dış Politikasının Dönüşüm Sürecinde Afrika". İçinde: Demir, İdris Türkiye'nin Dış Politikası: Yeni Eğilimleri, Yeni Yönelimleri, Yeni Yaklaşımaları, (Bursa: Dora Yayımları, 2014), 261-278.

⁷⁰ <https://www.aa.com.tr/en/asia-pacific>

⁷¹ Turkiye istatistik kurumu 2022

2012-yil 13-aprel Anqarada “Harbiy tayyorgarlik hamkorlik shartnomasi” imzolandi. 2015-yil 25-yanvar Mogadishuda “Mudofaa sanoati hamkorlik shartnomasi” imzolandi. 2012-yildan boshlab Turkiya Somali bilan xavfsizlik munosabatlarini kengaytirdi. Ikki davlat o‘rtasida amalga oshirilgan mudofaa va xavfsizlik kelishuvlariga ko‘ra, Anqara hamda Mogadishuda Somali politsiyasi va askarlariga harbiy ta’lim berildi.⁷² Bundan tashqari, 2017-yil 30-sentabrda Somalida yirik harbiy mashg‘ulotlarni amalga oshirishga mo‘ljallangan majmua qurish uchun 50 million dollar mablag‘ ajratdi. 1500 Somali askarlari har yil shu yerda harbiy ta’lim olishadi. Bundan tashqari, turk kemalarini himoya qilish, qaroqchilar faoliyatini oldini olish va to‘xtatish maqsadida 2009-yildan buyon Turkiya harbiy-dengiz kuchlari BMT bilan hamkorlikda Somali qirg‘oqlarida joylashgan Adan ko‘rfazida saqlanmoqda. Turkiyaning Somalidagi faol siyosati unga oziq-ovqat va sanoat mahsulotlarini sotadigan bozorini topishga yordam berdi.⁷³ Turkiya Havo Yo‘llari orqali Somaliga boradigan reyslar bu davlatning nafaqat Turkiya bilan, balki boshqa mamlakatlar bilan ham aloqalarini yaxshilashga xizmat qilib kelmoqda. Turkiyaning Somalida yuritayotgan siyosati uning boshqa Afrika davlatlari bilan ham aloqalarini yaxshilashga yordam bermoqda. Qo‘sishma ravishda, Turkiya Somalini qayta tiklash vaqtida katta hissa qo‘shdi va katta tajriba orttirdi.

Somali strategik jihatdan juda ham muhim hisoblanadi. Chunki Bob al-Mandeb bo‘g‘ozi, Adan ko‘rfazi va boshqa hududlar bilan savdo aloqalari Somali bilan bog‘liq. Somali Yaqin Sharqning neft transit nuqtasida joylashgan. Bundan tashqari Somali geografik jihatdan savdo aloqalari uchun qulay joyda joylashgan. Uning geopolitik ahamiyati tufayli boshqa rivojlangan davlatlar Afrika davlatlari bilan aloqalarni yaxshilashga harakat qilishadi. Masalan, AQSH, Fransiya, Italiya, Yaponiyaning Jibutida harbiy bazalari bor.

⁷² Akpinar, P.(2013). “Turkey’s Peacebuilding in Somalia: The Limits of Humanitarian Diplomacy”, Turkish Studies, 14 (4), 735-757

⁷³ Sıradağ, A. (2016). Turkish-Somali Relations: Changing State Identity and Foreign Policy. Inquiri, 89-98.

Turkiyaning Somalida olib borayotgan xavfsizlik siyosatining 3 ta muhim yo‘nalishi mavjud: iqtisodiy manfaatlarni himoya qilish, Turkiya sanoat mahsulotlarini sotish va turk tovarlari uchun yangi xaridolar topish, terrorizmga qarshi kurash.⁷⁴

1991-yildan buyon Somali kuchli milliy armiya va politsiyani tashkil eta olmadi. Bu mamlakatda tinchlik va xavfsizlikni ta’minlash uchun juda zarur edi. Shu sababli ham Turkiya 2012-yildan buyon Somali askarlarini harbiy jihatdan tayyorlash va ularni jihozlar bilan ta’minlab kelmoqda.⁷⁵

Turkiya Somalini og‘ir siyosiy va iqtisodiy inqirozdan chiqarishga yordam berish uchun bir qator tashabbuslarni amalga oshirdi. Turkiyaning birinchi ko‘zga ko‘ringan tashabbusi 2011-yil 17-avgustda Islom hamkorlik tashkiloti (IHT) yig‘ilishini tashkil etish bo‘ldi. Yig‘ilishda IHTga a’zo 40 ta davlat ishtirok etdi va u ocharchilik panjasida qolgan Somalini qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan edi. U Somaliga 350 million dollarlik gumanitar yordam berish va’dasi bilan yakunlandi. Ushbu uchrashuvdan ikki kun o‘tib, 19-avgust kuni Turkiya Bosh vaziri Rajab Erdo‘g‘an Mogadishoga tashrif buyurdi. O‘zgaruvchan xavfsizlik fonida u o‘zi bilan xotini, bolalari, vazirlari, biznesmenlari va san’atkorlarini olib keldi. Tashrifning asosiy maqsadi ramziy ma’noga ega edi, chunki Turkiya Mogadishoni qaytarib bo‘lmaydigan darajada xavfsiz va borish taqiqlangan hudud degan tushunchani inkor qilmoqchi edi. Ikkinci maqsad xalqaro e’tiborni Somaliga ko‘proq favqulodda insonparvarlik yordami zarurligiga qaratish edi. Ko‘rinib turibdiki, jiddiy xavfsizlik xavf-xatarlariga qarshi bo‘lgan holda - Al Shabaab Mogadishudan bir hafta oldin, 8 avgust kuni chiqarib yuborilgan edi - Erdoganning tashrifi somaliliklar uchun ma’naviy quvvat bo‘ldi. Somalilik siyosiy tahlilchi Abdihakim Ayntening ta’kidlashicha, tashrif "turklarning sa’y-harakatlariga misli ko‘rilmagan darajada asos bo‘ldi va Turkiya o‘ziga xos tarzda Somalining og‘ir ahvoli haqida global ongni uyg‘ota oladigan ishonchli musulmon millati ekanligi haqidagi mashhur nazariyani mustahkamladi".⁷⁶ Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleysi yig‘ilishida Erdo‘g‘an Somalidagi gumanitar falokatga ham e’tiborni

⁷⁴ <https://www.yenisafak.com/dusunce-gunlugu/turkiye-somali-iliskileri-afrikada-cok-boyutlu-var-olmak-3868814>

⁷⁵ <https://www.stratejikortak.com/2018/04/somali-dosyasi-somali-ulke-kunyesi.html>

⁷⁶ https://www.insamer.com/tr/islam-isbirligi-teskilati-ve-turkiyenin-donem-baskanligi_442.html

kuch bilan qaratdi. Nutq Turkiyaning Somalidagi ishonchli va hurmatli manfaatdor tomon obro'sini yanada oshirdi. Erdo'g'anning jasoratli tashrifidan keyin Turkiyaning Mogadishudagi elchixonasi qayta ochildi va gumanitar yordam sohasida amaliy tajribaga ega bo'lgan Jemalettin Torun zudlik bilan elchi etib tayinlandi. U Mogadishu aeroportidan shahar markaziga qadar katta shikastlangan yo'lni tiklaydi va shifoxonalar qurish va mavjud tibbiyot muassasalarini reabilitatsiya qilishni rejalashtirdi. Shuningdek, u Mogadishoda chiqindini utilizatsiya qilish inshootini qurishni va shahardan yig'ilмаган axlatlarni olib chiqish uchun yuk mashinalari bilan ta'minlashni rejalashtirdi. Mogadishoda turklar tomonidan boshqariladigan maktablar ochildi va yuzlab universitet stipendiyalari Somaliliklarga Turkiyada o'qish uchun taqdim etildi. Bundan tashqari, Turk Qizil Yarim Oy jamiyati oziq-ovqat tarqatiladigan va boshpana quriladigan joylar yaratdi. Shuningdek, u suv quduqlari tashkil etdi va Mogadishoda shahar suv tizimini qurishni qo'llab-quvvatladi. Turkiyalik yordam xodimlari Mogadishoda xavfsiz harakat qilishmoqda va hech qanday xavf mavjud emas. Shunga qaramay, 2011-yil 4-oktabr kuni Mogadishuda 70 dan ortiq somallik halok bo'lgan terrorchilik portlashi Turk talabalarini ham chetlab o'tmadi. Turkiya bu dahshatli hujum ortidan tibbiy yordam ko'rsatdi.⁷⁷

Turk havo yo'llari 21 yil ichida Mogadishuga muntazam reyslarni amalga oshirgan birinchi yirik davlat hisoblanadi. Reyslar haftasiga ikki marta Istanbuldan Mogadishuga Sudan poytaxti Xartum orqali amalga oshiriladi. Parvozlarning ko'rsatilgan maqsadi Somalini dunyoning qolgan qismi bilan qayta bog'lash va butun dunyo bo'y lab tarqalgan yirik Somali diasporasining Somaliga qaytishini osonlashtirishdir. O'sha davrdagi Turkiya Bosh vazir o'rinnbosari Bekir Bozdag 2012-yilning 6-mart kuni Turk Havo Yo'llarining ilk parvozini amalga oshirish uchun Mogadishuga kelgan edi. Bozdag'ning tashrifidan maqsad, Somalidagi vaziyatni yaxshiroq o'rganib, qaysi sohalarni rivojlantirishga e'tibor qaratish lozimligini o'rganish edi.⁷⁸

⁷⁷ Remzi Demir, Turkiyede Atik Yonetimi ve Atiklarin Geri Kazanimi 2016, 24-26

⁷⁸ https://www.ntv.com.tr/galeri/turkiye/turkiyenin-mogadisu-seferi-dunya-basininda,WoApkhiaH02qz9_C0Z7qgQ

Xulosa qilib aytganda, Turkiyaning Somalida yuritgan yumshoq kuch siyosati uning bu davlatdagi ta'sirini yanada kuchaytirdi. Bu siyosat ostida asosan o'zining manfaatlarini ko'zlagan bo'lsada, ammo Somalining sezilarli darajada rivojlanishiga olib keldi. Somaliliklar turk tilini o'rganishni boshlamoqda va u asta-sekin Somalida arab va ingliz tili bilan birga o'rganiladigan tilga aylanmoqda. Hozirda 2000 dan ortiq somalilik talabalar Turkiyaning turli ta'lim muassasalarida ta'lim olmoqda. Somali va Turkiya o'zaro savdo aloqalari chuqurlashgan sari turk tilining ahamiyati yanada ortib bormoqda. Bundan tashqari, Turkiya Somali iqtisodiga ham sarmoyalar kiritgan va bozor munosabatlarining yaxshilanishiga sababchi bo'lган. Somali xavfsizligini ta'minlash maqsadida Somali qurolli kuchlariga harbiy ta'lim berish, ularni qayta tayyorlash ishlarida qatnashgan. Ushbu omillar Somalining rivojlanishiga ta'sir ko'rsatmay qolmadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)

1. İnternet: Nye, J. Jr. (2005). "Soft Power and Higher Education", Web: [https://library.educause.edu/~media/files/library/2005/1/ffp0502s-pdf.pdf adresinden 18.08.2017](https://library.educause.edu/~media/files/library/2005/1/ffp0502s-pdf.pdf)
2. İnternet: "Türkiye Somali'de Ne Yapıyor?", Web: <http://www.dw.com/tr/t%C3%BCrkiye-somalide-ne-yap%C4%B1yor/a40576613> adresinden 27.06.2018 tarihinde alınmıştır
3. Hamid, S.H. (2017). 2005 ve Sonrası Türkiye-Afrika İlişkileri-Vaka İncelemesi: Somali Örneği, Yüksek Lisans Tezi, İstanbul Medeniyet Üniversitesi Sosyal Bilimler Enstitüsü, İstanbul
4. Bayram, Mürsel. "Türk Dış Politikasının Dönüşüm Sürecinde Afrika". İçinde: Demir, İdris Türkiye'nin Dış Politikası: Yeni Eğilimleri, Yeni Yönetimleri, Yeni Yaklaşımları, (Bursa: Dora Yayınları, 2014), 261-278.
5. <https://www.aa.com.tr/en/asia-pacific>
6. Turkiye istatistik kurumi 2022

7. Akpinar, P.(2013). "Turkey's Peacebuilding in Somalia: The Limits of Humanitarian Diplomacy", Turkish Studies, 14 (4), 735-757
8. Sıradağ, A. (2016). Turkish-Somali Relations: Changing State Identity and Foreign Policy. Inquiri, 89-98.
9. <https://www.yenisafak.com/dusunce-gunlugu/turkiye-somali-iliskileri-afrikada-cok-boyutlu-var-olmak-3868814>
10. <https://www.stratejikortak.com/2018/04/somali-dosyasi-somali-ulke-kunyesi.html>
11. https://www.insamer.com/tr/islam-isbirligi-teskilati-ve-turkiyenin-donem-baskanligi_442.html
12. Remzi Demir, Turkiyede Atik Yonetimi ve Atiklarin Geri Kazanimi 2016, 24-26
13. https://www.ntv.com.tr/galeri/turkiye/turkiyenin-mogadisu-seferi-dunya-basininda,WoApkhiaH02qz9_C0Z7qgQ